

O'YIN TEXNOLOGIYALAR METODIDAN FOYDALANIB INGLIZ TILINI O'QITISH

Umirzoqova Sevaraxon Ziyomitdin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi.

Annotatsiya. So'nggi yillarda chet tillarini o'rganishga va o'qitishga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa chet tili darslarini, xususan, ingliz tili fanini qiziqarli qilib o'tishda yangi pedagogik metodlarni qo'llashga chorlomoqda. Ushbu maqolada ingliz tilini o'yinlar orqali o'rganish metodlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ingliz tili, samara, ta`lim, o`quvchi, chet tili AKT, interfaol o'yinlar, texnik vositalar, didaktik o'yinlar, Rolli o'yinlar uslubi.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etayotganligi sababli, tillarni nafaqat oliy ta'lim muassasalarida, maktablarda, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida ham o'rgatilmoxda. Darslarda o'ziga xos usullar, qiziqarli metodlar bilan o'tilmasa, o'quvchilarni darsga jalb qilish biroz murakkab vazifaga aylanishi mumkin. Agarda darslarda an'anaviy usullardan kechilsa, qiziqrli qilib olib borilsa bu nafaqat dars sifatini ta'minlaydi, shu bilan birga zerikishni oldini olib, passiv o'quvchilarni ham darsda ishtirok etishga jalb qiladi. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratilmoqda. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshdi. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berildi.

Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samarador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

- kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;

- chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;

- ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan foydalanish; — CD pleyerlardan foydalanish mumkin.

Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Chet tili darslarining o'tilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarini, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish zarur.

Ingliz tilini o'rgatish jarayonida bir qator qiziqrli o'yinlar mavjud. Shuni aytib o'tish joizki, bolalarga til o'rgatishda shunday o'yinlardan oydalanish kerakki, unda barcha o'quvchilar birdek ishtirok etishsin hamda darsadan yangilik olishsin (masalan yangi lug'atlar yodlab ketishi mumkin, har kuni shu jarayon takrorlansa, o'quvchining lug'at boyligi yuqori darajaga ko'tariladi). O'quvchilarga darsni grammamatik tushunchalar bilan boshlash noo'rindir, ayniqsa kichik sinf o'quvchilarini tezda zerikishiga sabab bo'ladi. Natijada dasrga bo'lgan qiziqish so'nishi mumkin. Ular bilan hattoki salomlashish jarayonini ham noan'anaviy tarzda boshlash kerak, masalan, o'qituvchi kirishi bilan darsni qandaydir salomlashishga oid inglizcha qo'shiq bilan boshlash (asosan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mativatsion usuldir) usuli samarali usuldir. Shu tariqa dars davom etsa, o'quvchilar dars davomida ha bir topshiriqqa bo'lgan e'tiborini yo'qotishmaydi. Xattoki ular ingliz tili darslarini intizorlik bilan kutishadigan bo'lishadi. Albatta, bularning barchasini o'qituvchi tashkillashtirishi kerak va bu pedagogning zimmasida. Shunday ekan chet tilini o'rganishni qiziqarli qilish uchun ba'zi o'yin turlarini keltirib o'tish mumkin.

Grammatika bir necha sabablarga ko'ra ingliz tilini o'rganishda juda muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, busiz to'g'ri gapirishni, iboralar va jumlalarni tuzishni o'rganish mumkin emas, hatto havas qiladigan so'z boyligingiz bo'lsa ham. Ammo mohiyatiga ko'ra, grammatika faqat qoidalar to'plamidir va ularni o'rganish ko'pchilik uchun unchalik qiziq emas. Ammo o'qituvchilar va metodistlar nonlarini bekorga yemaydilar, ular doimo quruq grammatik qoidalarni suyultirishga harakat qiladilar, nafaqat qiziqarli va hayajonli, balki o'quv jarayoniga uyg'un ravishda mos keladigan va kerakli materialni oson va befarq o'zlashtirishga yordam beradigan o'yinlarni o'ylab topadilar.

Umuman o'quv jarayonida va xususan grammatik materialni o'rganishda o'yinlardan foydalanishning isbotlangan afzallikkleri va maqsadga muvofiqligiga qaramay, eng yaxshisi yaxshilikning dushmani ekanligini unutmaslik kerak. Shuning uchun ularni ham me'yorida va to'g'ri ishlatalish kerak. Birinchidan, esda tutingki, o'yin o'ynayotganda, o'quvchilar, ayniqsa, agar ular bolalar bo'lsa, va hatto alohida emas, balki guruhda juda hayajonlanadi va baquvvat bo'ladi. Shuning uchun, agar siz o'yindan keyin yangi mavzuni muhokama qilishni rejalashtirmoqchi bo'lsangiz, vaqtini behuda yo'qotasiz, chunki tartibni o'rnatish juda qiyin bo'lishi mumkin.

O'rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'yinlar eng yaxshi qo'llaniladi, shuning uchun yangi grammatik tuzilmalarning rivojlanishi o'yin va do'stona muhitda oson va tabiiy ravishda sodir bo'ladi. Shuning uchun oraliq darslarda ma'lum bir grammatik mavzuni muhokama qilish siklida o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdır. Darsdagi vaqtga kelsak, buni oxirigacha bajarish yaxshiroqdir - bu biroz dam olishga yordam beradi va keyingi uchrashuvga qadar darsda yoqimli taassurot qoldiradi. Ingliz tili darsidagi o'yinlar juda xilma-xil bo'lishi mumkin. Ulardan foydalanish faqat darsning davomiyligi va o'qituvchining ijodkorligi bilan cheklanishi mumkin. Masalan, o'yinlar turli xil narsalarni rekvizit sifatida va ularsiz ishlatishi mumkin. I.Frankning fikricha, rekvizitlar o'yin vaziyatini yanada reallashtirishga yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, materialni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Lekin, albatta, Skype orqali o'qitish haqida gap ketganda, bu deyarli mumkin emas. O'z tabiatiga ko'ra o'yinlar mavzuli, syujetli, biznes, rolli, simulyatsiya va dramatizatsiya o'yinlari bo'lishi mumkin. O'yin jarayoniga ko'proq rang qo'shish uchun o'qituvchi foydalanishi mumkin har xil turlari dars davomida individual, juftlik, guruh va frontal kabi ish. Ularning har biri talaba uchun o'ziga xos afzallikkarga ega, shuning uchun biriga ustunlik berib, qolganlarini e'tiborsiz qoldirmaslik kerak.

Ilg'or metodlar chet tilini puxta o'zlashtirishda kompos vazifasini o'taydi. Shunday metodlardan biri bu dars jarayonida rolli o'yinlardan foydalanishdir. Rolli o'yinlar bu real hayotimizdagи turli situasiyalarni chet tili o'rganish jarayonida qo'llashdir. Bu metod dars jarayonida til muhitini yaratishga yordam beradi.

Masalan: 1-holatda tasodifan eski dugonalar uchrashib qolishadi.

2-holat Yo'ldan o'tayotib yo'l qoidasiga riosa qilmagan bolani ya'ni o'tish bo`Imagan yo`lni kesib o`tadi.

3-holat.Magazinda oziq ovqat olish uchun xaridor kiradi.

4 Ushbu situasiyalar bo'yicha sahna ko`rinishlari ijro etiladi. Bunday hayotiy rolli o'yinlar dars jarayonida til muhitini yaratadi, talabalarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini beradi.

Rolli o'yinlarda ishtirok etish jarayonida talabalar fikrlashga o'rganadilar,o'z emosional holatlarini chet tilida erkin ifodalay olishga o'rganadilar.Rollı o'yinlarga tayorgarlik jarayonida bir-birining leksik,grammatik va talaffuzdagi xatolarini to`g`irlaydilar. Xato qilib va shu xatoni to`g`irlash ham tilni o'rganishga yordam beradi va talabalarni to`g`ri talaffuzga o'rgatadi. Dars jarayonida rolli o'yinlardan foydalanish bir vaqtning o'zida barcha talabalarni darsda aktiv ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Bundan tashqari rolli o'yinlar talabalarning chet tilini

o`rganishga qiziqishini oshiradi va dars jarayoniga jonli, quvnoq muhitni yaratadi. Bu esa chet tili darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Keyingi metod bu «Keys-stadi» bo`lib inglizcha, («case») — aniq vaziyat, hodisa, «study» — o`rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o`rganish, tahlil qilish asosida o`qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

Eng qiziqarli metodlardan biri - «Pantomimo» o`yinida 3 guruhga ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan kishi doskaga chiqariladi. Ularga turli so`zlar ro`yxat asosida beriladi. Ular biror bir so`z aytmasdan imo-ishoralar, harakatlar orqali so`zlarni qolgan guruh a`zolariga tushuntirishlari kerak.

Taboo words o`yini (Ta`qiqlangan so`zlar) - bu qiziqarli o`yin o`quvchilarga sinonim so`zlar va ularning tariflarini qo'llashda yordam beradi. Sinonimlardan foydalanish nutqning ravonligi, so`zlashuvning chiroyli bo`lishini ta'minlaydi. Ayniqsa ingliz tili fanida so`z qo'llash bilan bog'liq xatolikga yo'l qo`ymaslik kerak, chunki ingliz tilidagi ko'plab bir xil ma'noni anglatuvchi so`zlar, gap mazmuniga ko'ra foydalaniлади. Aynan ushbu o`yin shu jihatda ehtiyojkor bo`lishga yordam beradi. Bunda guruhsar tashkil qilinadi, ya'ni o`quvchilar qarama-qarshi holda o'tiradilar. Har bir jamoa o`z jamoasidan bir kishini ro`parasidagi stulga o'tirishi uchun tanlaydi. O`qituvchi esa o`quvchilar ortiga o'tib katta qog'ozda yozilgan so`z ushlab turadi. O'rindiqda o'tirgan o`quvchilar bu so`zni ko'ra olmasligi kerak bo'ladi. Jamoaning o'rindiqda o'tirgan a'zosiga o`qituvchi ushlab turgan so`zni ayttirish uchun biroz vaqt bo'ladi

Tennis o`yini - bu o`yining maqsadi o`quvchilarning tezligini oshirishdir. Bu o`yin zanjir o`yiniga o`xshaydi va tanlangan mavzu doirasida bo`lib o'tadi. Bunda aytilgan so`zning so`nggi harfiga yangi so`z aytishi kerak, masalan mavzu nomi „Animals“ bo`lsa, mavzudan chetlashmagan holda „Tiger“ so`zi bilan boshlansa, ikkinchi ishtirokchi „rabbit“ deb davom ettiradi. Shu tariqa o`yin davom etadi. O`yin davomida to'xtab qolgan o`quvchi 5 daqiqa davomida javob bera olmasa o`yindan chetlashtiriladi va qolgan o`quvchilar bilan davom ettiriladi. O`yinni sinf bilan ya'ni ko'pchilik bilan o`ynash juda qiziqarli va maroqli bo'ladi. Bu o`yinni mavzuni o`zgartirish orqali ham o`ynash mumkin. Shu bilan birga, o`yinlarni tashkil etish jarayonida, ularni turli texnik vositalar bilan bog'lab o'tish ham qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Chunki bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan zamonda barcha yoshlar, o'smirlar va kattalar ham zamonaviy texnologiyalarga befarq emas. Shunday ekan, qiziqarli fan o`yinlari kompyuterlarda tashkil qilinishi orqali samarali natijaga erishish mumkin

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o`quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, nutqi

ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. O'yinlardan foydalanishda ularni bolalarning bilimiga va yoshiga qarab o'zgartirishimiz, ya'ni osonlashtirish yoki murakkablashtirishimiz mumkin. Ushbu yuqorida keltirilga o'yinlarning maqsadi o'quvchilarning xotirasini kuchaytirish, aqliy salohiyatini oshirish, tezkorlik, ziyraklik, yangi so'zlarni oson esda saqlash va eng asosiysi darsni mazmunli tashkil qilishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jamol Jalolov chet til 0 ‘qitish metodikasi,0 ‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi toshkent - 2012
2. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
- 3 Harnad, S., Lancaster, J. B., & Steklis, H. D. “Induction, evaluation and accountability”, Origins and Evolution of Language and Speech. New York: New York Academy of Sciences. 1976 [6]
- 4 Hayles, N. K. “Electronic Literature: New Horizons for the Literary” . Notre Dame: University 1.of Notre Dame Press, 2008. [7] Hayes, R. T. “The Effectiveness of Instructional Games”. Naval Air Warfare Center, Orlando, (November 2005). [8] [5] Warschauer, M. “Laptops and literacy: Learning in the wireless classroom”. 2006 [9] Williams T Bicknell, A. E. “The Journal of education” , Volume 174 (Issues 1-3), 1992.
5. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. “CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH”. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
6. O'.Hoshimov, I. Yoqubov. “INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI” (o'quv qo'llanma) Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003
7. Ismoilov Kakhramonjon Abdumuminovich. (2023). THE ROLE OF BLENDED LEARNING TECHNOLOGY IN IMPROVEMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE (on the basis of foreign sources). International Journal of Formal Education, 2(5), 205–211. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/845>